

QASHQADARYO VILOYATINING DIQQATGA SAZOVOR JOYLARI VA TURIZM AHAMIYATI TAHLILI

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Qahhorova Nilufar Saidmurod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati, uning diqqatga sazovor tarixiy, madaniy va tabiiy maskanlari hamda ularning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, Shahrisabz shahridagi Oqsaroy majmuasi, Amir Temur haykali hamda Kitob milliy tabiat bog'ining turizm va ilmiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, viloyatda mavjud madaniy meros obyektlari soni, ularning hududlar kesimidagi taqsimoti va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida hududda tarixiy-madaniy, ziyorat, ekologik va ilmiy turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning istiqbollari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Qashqadaryo viloyati, turizm salohiyati, tarixiy obidalar, Oqsaroy majmuasi, Kitob milliy tabiat bog'i, ekoturizm, ziyorat turizmi, madaniy meros, rekreatsion resurslar, barqaror rivojlanish.

ANALYSIS OF NOTABLE PLACES OF THE KASHKADARYA REGION AND THEIR TOURISM SIGNIFICANCE

Sultonov Shukhrat Akhmadovich

Associate Professor, Shahrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shahrisabz city

Qahhorova Nilufar Saidmurod qizi

Student, Shahrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shahrisabz city

Abstract. This article provides a scientific analysis of the tourism potential of the Kashkadarya region, focusing on its notable historical, cultural, and natural attractions and their role in regional socio-economic development. In particular, the study highlights the tourism and scientific significance of the Ak-Saray complex in Shahrisabz, the statue of Amir Temur, and the Kitab National Nature Park. The paper also examines the number and territorial distribution of cultural

heritage sites in the region, as well as measures aimed at improving tourism infrastructure. The research substantiates the prospects for the development of historical-cultural, pilgrimage, ecological, and scientific tourism in the region.

Keywords. Kashkadarya region, tourism potential, historical monuments, Ak-Saray complex, Kitab National Nature Park, ecotourism, pilgrimage tourism, cultural heritage, recreational resources, sustainable development.

АНАЛИЗ ПРИМЕЧАТЕЛЬНЫХ МЕСТ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ТУРИСТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ

Султонов Шухрат Ахмадович

Доцент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, г. Шахрисабз

Каххорова Нилуфар Саидмурод кизи

Студентка Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, г. Шахрисабз

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ туристического потенциала Кашкадарьинской области, её исторических, культурных и природных достопримечательностей, а также их роли в социально-экономическом развитии региона. Особое внимание уделено туристическому и научному значению комплекса Ак-Сарай в Шахрисабзе, памятника Амиру Темуру и Китабского национального природного парка. Также рассмотрены количественные показатели объектов культурного наследия, их территориальное распределение и меры по развитию туристической инфраструктуры. В результате исследования обоснованы перспективы развития историко-культурного, паломнического, экологического и научного туризма в регионе.

Ключевые слова. Кашкадарьинская область, туристический потенциал, исторические памятники, комплекс Ак-Сарай, Китабский национальный природный парк, экотуризм, паломнический туризм, культурное наследие, рекреационные ресурсы, устойчивое развитие.

Kirish. Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati - O'zbekiston Respublikasidagi tarixiy obidalar hamda rekreatsion resurslar imkoniyatlariga ega bo'lgan hudud, respublikaning janubiy hududida joylashgan. Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarning 17,76% joylashgan.

Muhokama. Qashqadaryo viloyatda bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 1 ming 189 tasi arxeologiya, 208

tasi arxitektura, 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi PF-6165 son Farmoning 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimligi byudjetdan tashqari 200 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning eng qadimiy va boy tarixga ega hududlaridan biri bo‘lib, Amir Temur yurti sifatida jahon sayyohlarini o‘ziga tortadi. Shahrisabzning UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan obidalar (Oqsaroy, Dorus-Siadat), Qarshi shahrining tarixiy ko‘priklari va boy ekoturizm salohiyati viloyatni ziyorat va dam olish turizmida muhim maskanga aylantirgan. Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati: Tarixiy-me'moriy obidalar: Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi, Dorut-tilovat, Dorus-siadot majmualari hamda Qarshi shahridagi qadimiy hammomlar va ko‘priklar asosiy turistik nuqtalar hisoblanadi. Ziyorat turizmi: Hazrati Bashir, Bandikushod, Bibi ona kabi ziyoratgohlar hamda islom ilmlari rivojiga hissa qo‘shgan zotlarning qadamjolari viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirmoqda.

Ekoturizm va dam olish: Hisor tizmasi etaklari, Sangardak sharsharasi, G‘ilon qishlog‘i va qorako‘l, sanatoriyalar (masalan, Qaynarbuloq) dam olish maskanlari sifatida yuqori salohiyatga ega. Ahamiyati: Viloyatda 17 ta yirik turistik obyekt mavjud bo‘lib, ular yil davomida 700 mingdan ortiq mahalliy va xalqaro sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Turistik imkoniyatlari: Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni asosan Shahrisabz, Qarshi va Kitob tumanlarida ko‘p uchraydi. Shahrisabz shahri UNESCO butun jahon ma‘daniy merosligiga kiritilgan.

Natijalar. Qashqadaryo viloyatida o‘zining uzoq o‘tmishiga ega ekanligi sabab tarixiy obidalar soni va ilmiy yangiligi turfa xillikni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni hududlar kesimida turlicha hisoblanadi.

Qarshi shahar - Arxeologik yodgorliklar 28 ta, arxitektura yodgorliklari 25 ta, monumental san’at yodgorliklari 6 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Shahrisabz tumani - arxeologik yodgorliklar 138 ta, arxitektura yodgorliklari 22 ta, monumental san’at yodgorliklari 5 ta.

Yakkabog‘ tumani - arxeologik yodgorliklar 195 ta, arxitektura yodgorliklari 38 ta, monumental san’at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 2 ta.

Kitob tumani - Arxeologik yodgorliklar 281 ta, Arxitektura yodgorliklari 16 ta, monumental san’at yodgorliklari 3 ta, diqqatga sazovor joylar 5 ta.

G‘uzor tumani - arxeologik yodgorliklar 94 ta, arxitektura yodgorliklari 9 ta, monumental san’at yodgorliklari 3 ta, diqqatga sazovor joylar 3 ta.

Koson tumani - arxeologik yodgorliklar 76 ta, arxitektura yodgorliklari 11 ta, monumental san’at yodgorliklari 4 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Chiroqchi tumani - arxeologik yodgorliklar 58 ta, arxitektura yodgorliklari 16 ta, monumental san’at yodgorliklari 3 ta, diqqatga sazovor joylar 2 ta.

Shahrisabz shahri - arxeologik yodgorliklar 29 ta, arxitektura yodgorliklari 28 ta, monumental san’at yodgorliklari 5 ta.

Qarshi tumani - arxeologik yodgorliklar 58 ta, arxitektura yodgorliklari 29 ta, monumental san’at yodgorliklari 28 ta, diqqatga sazovor joylar 5 ta.

Kasbi tumani - arxeologik yodgorliklar 79 ta, arxitektura yodgorliklari 11 ta, monumental san’at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 2 ta.

Nishon tumani - arxeologik yodgorliklar 3 ta, arxitektura yodgorliklari 1 ta, diqqatga sazovor joylar 3 ta.

Mirishkor tumani - arxeologik yodgorliklar 9 ta, arxitektura yodgorliklari 6 ta, monumental san’at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Muborak tumani - arxeologik yodgorliklar 2 ta, arxitektura yodgorliklari 3 ta, monumental san’at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Qashqadaryo viloyati rekreatsion jihatdan shifobaxsh buloqlari, dam olish maskanlari, sanatoriyalar, sohil hududlari mavjud.

Oqsaroyning qurilishi 1380-yilda boshlangan, hamda 1386-yilda o‘z nihoyasiga yetgan. Ammo bezaklash ishlari 1404-yilga qadar cho‘zilgan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan. Saroyni barpo etish davomida Xorazm, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Jumladan, gumbazli arkni yasash va bezashda tosh kesuvchi usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo‘lgani gumbaz yozuvlarida saqlangan. Inshoot avvaliga 73 metrlik bo‘lishi kerak edi. Uning tom qismida kichik suv hovuzi joylashtirilgan, undan quvurchalar orqali o‘tgan suv sharshara hosil qilgan. Saroy poydevorini bunyod etishda oltin qum ishlatilgan. Bino poydevori ancha chuqur qilib qurilgan.



Shahrisabz shahridagi Oqsaroy majmui ko‘rinishi

Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi oldida qad rostlagan Amir Temur haykali ulug‘vor va mahobatli ko‘rinishga ega. Sohibqiron taxtda mag‘rur o‘tirgan holda tasvirlangan bo‘lib, kiyimlari, qilichi va yuz ifodasi uning kuch-qudrati, donoligi hamda davlat arbobi sifatidagi salobatini aks ettiradi. Haykal oq marmardan ishlangan bo‘lib, atrofidagi tarixiy muhit bilan uyg‘unlashgan. Ko‘rinishi: Taxtda o‘tirgan sarkarda, asosiy e‘tibor qat‘iyatli yuz va qad qomatga qaratilgan. Joylashuvi: Oqsaroy saroyining asosiy kirish qismi qarshisida. Maqsadi: Buyuk bobokalonimizning tarixiy jasorati va davlatchilik asoschisi sifatidagi o‘rnini ko‘rsatish.

Kitob milliy tabiat bog‘i - O‘zbekistonning eng noyob ilmiy va tabiiy hududlaridan biri bo‘lib, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan. Ushbu bog‘ 1979-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi Yer qatlamlarining geologik tuzilishini, qadimgi davrlarga oid jinslarni va toshqotgan qoldiqlarni (fauna va flora olamini) saqlash hamda o‘rganishdan iborat.

Tabiat bog‘i noyob geologik obyekt hisoblanadi. U Zarafshon tog‘ tizmasining g‘arbiy qismida Xo‘jaqurgan darasida joylashgan bo‘lib, o‘rta va yuqori devon davriga oid toshqotganlar hamda turli geologik jinslarni o‘z ichiga oladi. Noyob geologik kesmalar, paleozoy erasi toshqotganlari va noyob tabiiy landshaftlarni saqlab qolish. Geologik ahamiyati: Qo‘riqxon hududida “Zinzilban” kesmasi mavjud bo‘lib, u devon davri geologik davrlar chegarasini belgilovchi xalqaro standart (stratigrafik ob‘yekt) hisoblanadi. Hududda 798 turdagi yuksak o‘simliklar, jumladan Zarafshon archasi o‘sadi. Hayvonot dunyosi boy va turli-tuman bo‘lib, tog‘li relyefga moslashgan turlar uchraydi. Turizm: Qo‘riqxon hududida “Tushlik” kabi tabiati o‘ziga xos daralar va tabiiy tosh haykallar mavjud.

Bog‘ tabiatni muhofaza qilish hududi bo‘lgani uchun, unga tashrif buyurish uchun maxsus ruxsatnoma talab etiladi.



Kitob milliy tabiat bog‘i tabiati ko‘rinishi

Asosiy xususiyatlari. Tabiat bog‘i hududida Paleozoy erasiga oid (taxminan 300–400 million yil oldingi) tog‘ jinslari saqlanib qolgan. Bu yerda Yer tarixining muhim bosqichlarini ko‘rsatib beruvchi stratigrafik qatlamlar aniq ko‘rinadi. Turli xil qadimgi dengiz jonzotlarining toshqotgan qoldiqlari topilgan.

Stratigrafik va geologik ahamiyati. Hudud geologik jihatdan dunyoda juda noyob bo‘lgan uzluksiz paleozoy stratigrafik kesmalarga ega. Bu yerda Yer tarixining qadimgi davrlari, xususan ordovik, devon va karbon (toshko‘mir) davrlariga oid tog‘ jinslari, qatlamlar va ularning tarkibida saqlangan organik dunyo qoldiqlari keng tarqalganligi bilan ahamiyatli.

Bog‘ hududidagi kesmalar tarkibida qadimiy dengiz hayotidan qolgan o‘ta yaxshi saqlangan o‘simlik va hayvon izlari (braxiopodalar, trilobitlar, marjonlar, foraminiferalar va boshqalar) mavjud bo‘lib, ular Yerning 300- 407 million yillik geologik tarixini o‘rganishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududda ilmiy o'rganishlar



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududda ilmiy o'rganishlar

Zinzilban bo'lagi hududi xususan Devon davrining pastki o'tish oralig'ining global stratigrafik etaloni sifatida tan olingan. Bu kesma 1989-yilda Xalqaro Geologiya Kengashi tomonidan etalon sifatida qabul qilingan va 1996-yilda Xalqaro Geologik Fanlar Ittifoqi tomonidan tasdiqlangan.

Ushbu stratigrafik qoldiqlar orqali olimlar Yerning geologik tuzilishi, tog'larning shakllanish jarayoni, dengiz sathining o'zgarishi hamda hayotning evolyutsiyaviy yo'nalishlari haqida aniq va chuqur ma'lumotlarni oladi.

Turizm va ahamiyati: Qo'riqxonaga ilmiy turizm va ekoturizm uchun juda muhim maskan. Tabiatni sevuvchi sayyohlar va talabalar uchun qiziqarli ekskursiya joyi. Hudud Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Yuqorida tahlil qilingan Qashqadaryo viloyati ning diqqatga sazovor maskanlari - Shahrisabz shahridagi Oqsaroy majmuasi, unda qad rostlagan Amir Temur haykali hamda Kitob milliy tabiat bog'i - hududning boy tarixiy, madaniy va tabiiy salohiyatini har tomonlama namoyon etadi. Ushbu maskanlar orqali viloyatning o'tmishi, buguni va kelajagi o'zaro uyg'un holda aks etadi.

Shahrisabz shahridagi tarixiy obidalar, ayniqsa Oqsaroy majmuasi, buyuk sarkarda Amir Temur davrining qudrati va me'morchilik yutuqlarini ifodalaydi. Bu maskanlar nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki milliy o'zlikni anglash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu yerlar xalqaro miqyosda ham katta qiziqish uyg'otib, xorijiy sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. Boshqa tomondan, Kitob geologik qo'riqxonasi tabiiy-ilmiy jihatdan beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, Yer tarixining qadimiy davrlariga oid noyob ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Bu hudud nafaqat olimlar, balki oddiy sayyohlar uchun ham qiziqarli bo'lib, ekoturizm va ilmiy turizm rivojiga katta hissa qo'shadi. Tabiat va ilm uyg'unligi bu maskanni alohida qadrlashga undaydi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati ko'p qirrali bo'lib, unda tarixiy-madaniy, ziyorat, ekologik va ilmiy turizm yo'nalishlari bir-birini to'ldirib boradi. Bu esa hududni nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi muhim turizm markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Kelgusida ushbu maskanlarni yanada rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish orqali viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida hudud iqtisodiyotining o'sishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va mahalliy aholi farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati o'zining boy tarixiy merosi, noyob tabiiy boyliklari va katta turizm imkoniyatlari bilan mamlakatimizning eng istiqbolli hududlaridan biri bo'lib, uni asrab-avaylash va rivojlantirish har birimizning muhim vazifamiz hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Заповедники СССР Заповедники Средней Азии и Казахстана, Москва. 1990.
2. А. Худайбердиев. охрана природы в Узбекистане. Ташкент. 1989.
3. К изучению животного и растительного мира Узбекистана. Ташкент. 1984.
4. Кашкадарьинская область. Том 1 природа. Ташкент. 1959.
5. Китабскиц государственный геологический заповедник. Ташкент. 1989.

6. Ўзбекистон ССРда табиатни қўриқлаш ҳақида қонун. Тошкент. 1974.
7. Файзуллаев.М.А. Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклининг шаклланиши ва ривожланиши. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.
8. Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol.2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447.
9. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104.
10. Sulstonov Shuxrat Adxamovich, & Sulstonov Nekro‘z Aliqulzoda. Kitob geologik qo‘riqxonasi hududida tarqalgan paleontologik yotqiziqalar joylashuvi haqida qisqacha tahlil. Educational Research in Universal Sciences. - VOLUME 3 ISSUE 12 DECEMBER 2024, https://t.me/Erus_uz, 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14499481>
11. Nazarov M.G. Qashqadaryo viloyatining antropogen landshaftlarini tasniflashning ayrim masalalari // Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. -Qarshi, 2013. –B.71-74.
12. Sulstonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog‘li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.
13. Sulstonov Sh.A., Navotova.D.I., Raximova.D.Z. Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i hududida tarqalgan flora hamda faunalar tarqalishi. Экономика и социум. -№3(139)-3 2025, 537-542 betlar, 2025-yil. <http://www.iupr.ru> .
14. Sulstonov Sh.A. Qashqadaryo viloyatida mineral resurslardan foydalanishning geografik jihatlari va tabiatga salbiy ta‘siri masalalari. FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. -№4. 2025-yil. 39-41-betlar.
- 15.